

**TALABALARNI NUTQIY VA LINGVISTIK
KOMPETENSIYALARINI O'QUV
TOPSHIRIQLARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK,
PSIXOLOGIK, PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Altibayeva Malika Kuvandikovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ,
ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ И
ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ
НА ОСНОВЕ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ**

Алтибаева Малика Кувандиковна, преподаватель кафедры «Педагогика» Ташкентского университета прикладных наук

**PEDAGOGICAL, PSYCHOLOGICAL, AND
PRAGMATIC FEATURES OF IMPROVING
STUDENTS' SPEECH AND LINGUISTIC
COMPETENCIES BASED ON EDUCATIONAL
TASKS**

Malika Kuvandikovna Altibaeva, teacher of the Department of "Pedagogy" of Tashkent University of Applied Sciences

Annotatsiya: Talabalarni nutqiy va lingvistik kompetensiylarini o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirishning pedagogik, psixologik, pragmatik xususiyatlarini metodik rivojlantirish imkoniyatini yaratilishi lingvopedagogik kompetensiylarini takomillahtirish ilmiy-metodik asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, pedagogika, psixologiya, pragmatika, ilmiy-metodik asoslar, o'zbek tilshunosligi, metodologik tamoyil, metodika, sun'iy intellekt, didaktika.

Аннотация: Научно-методически обоснована возможность методического развития педагогических, психологических и pragmaticальных особенностей совершенствования речевых и лингвистических компетенций студентов на основе учебных заданий для улучшения их лингвопедагогических компетенций.

Ключевые слова: речевая компетентность, лингвистическая компетентность, педагогика, психология, pragmatika, научно-методические основы, узбекское языкознание, методологический принцип, методология, искусственный интеллект, дидактика.

Annotation: The scientific and methodological basis for the pedagogical, psychological, and pragmatic characteristics of improving students' speech and linguistic competencies through educational assignments has been substantiated to enhance linguo-pedagogical competencies.

Key words: speech competence, linguistic competence, pedagogy, psychology, pragmatics, scientific-methodical foundations, Uzbek linguistics, methodological principle, methodology, artificial intelligence, didactics.



*malikaaltibayeva@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-5616-936X*

Kirish. Fanda taraqqiyotni belgilovchi va davlatni, millatni, bunyodkorlarini jahonga mashhur qiladigan ilmiy maktabu yo‘nalishlar tadqiq manbaiga yangicha talqin etishning qat’iy metodologik tamoyillari asosida yondashish natijasi o‘laroq shakllanadi va rivojlanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning hayotga tatbiqi sharofati bilan o‘zbek tilshunosligida ona – o‘zbek tili qurilishi yevropaviy shablonlar asosida formal talqin etish asoratidan qutulib, hozir jahon tilshunoslari diqqatiga ham sazovor bo‘layotgan substansial tahlil metodologiyasi asoslariga - tom ma’noda o‘zbekona tahlil usullariga - to‘la ko‘chirildi.

Hozir o‘quv-metodik majmualarni yangilash munosabati bilan respublikamizda oliy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan 50 dan ortiq tillar bo‘yicha lingistik talqinlarni o‘zbekona (substansial) talqin usullariga ko‘chirib, birinchidan, o‘rtta ta’limda ona tili qurilishi bo‘yicha olinadigan talqinlar bilan oliyohda beriladigan talqinlarni uyg‘unlashtirishga, ikkinchidan, jahon tilshunosligi silsilasida o‘zbek lingistik maktabi o‘rnini barqarorlashtirishga real imkoniyatlar mavjud. Bu oliy filologik ta’limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi.

M.B.Elkonin konsepsiyasiga ko‘ra, bolani rivojlantirish jarayonida, avvalo, faoliyatning motivatsion tomonini, keyin esa texnik jarayonni o‘zlashtirish amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, olimlar quyidagi omillarni ham ajratib ko‘rsatadilar:

- ijtimoiy-siyosiy (tilning davlatga xosligi, mактабда о‘qish majburiyati);
- kasbiy qiymat (kasbga o‘qitish davlat tilida olib boriladi);
- ijtimoiy obro‘, jamoaviy mas’ullik;
- kommunikativ (ona tilida muloqot qilish zaruriyati);
- o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj, o‘zini takomillashtirish istagi bilan bog‘liq sabablar;
- utilitar (ma’lum hayotiy manfaatlarga erishish vositasi sifatida tilni bilish zarurati);
- xavotirlanish sabablari (auditoriyani orqaga tortmaslik, past baho olmaslik);
- ona tili va adabiyoti o‘qituvchisiga hurmat motivi.

Til tashuvchisining shakllanish darajasiga ta’sir qiluvchi psixologik shartlar orasida lisoniy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, til

tashuvchisining shakllanishi faqatgina mактаб ta’limi jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun ongli hayotida davom etadi. Ko‘pchilik zamonaviy olimlar “til tashuvchisi” tushunchasining tuzilish tarkibiga quyidagilarni kiritadilar:

M.Axmedovanining psixologik tadqiqotlar tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. “Ona tilining kommunikativ rivojlanishi” iborasi I.Ya.Zimnyayaning fikricha, quyidagilarni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Mazkur talablarni amalga oshirish uchun ona tili ta’limida pragmatik yondashuvga asoslangan o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim [1]. Buning uchun turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta’limning afzalliklarini o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Muloqot davomida odatda savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun talabalarga rag‘bat yoki noto‘g‘ri javob bergen taqdirda ularga dashnom beriladi. Darsda talabani savol berishga undash mumkinmi, ko‘p hollarda bunga e’tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. Talabalar tomonidan o‘qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag‘batlanirilmaydi. Ona tili mashg‘ulotlarida va boshqa fanlarda ham talabalar, asosan, javob beruvchidir. Aslida talabaga ko‘proq savol berishni o‘rgatish lozim. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog‘liq bo‘ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so‘rash qobiliyati bilan ham belgilanadi [2].

Pragmatik pedagogika hayotdan olingan maqsadlarni himoya qiladi. Amerika mактаби pragmatik ta’lim zarurligini isbotlay olgan va umumiylaholining taraqqiyoti va manfaatlارiga mos keladigan ta’lim maqsadlarini taklif qila olgan. Ta’lim, D.Dyuining fikricha, insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o‘zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni,

muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aratashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aratashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi.

Ona tili ta’lmiga, xususan, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishga yordam beradigan jihatni quyidagilarda namoyon bo‘ladi: masalan, bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so‘zlashish qoidalari; so‘zlovchining maqsadi; so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va xislatlariga baho berilishi; so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar savol berish, topshiriq bajarish, umuman, o‘zaro muloqotda muhim ahamiyatga ega [6].

Har bir metodikaga doir taddiqotning asosini o‘quv topshiriqlari tashkil etadi. Ona tili ta’limida keyingi bir asr davomida ko‘plab taddiqotlar olib borildi. Jadidlar boshlab bergen ta’limning mazmuni o‘zida o‘zbek tiliga xos milliylikni qamragan edi [7].

E’tiborli jihatni shundaki, mazkur darsliklar mazmuni keyinchalik oliy ta’lim darsliklariga ko‘chdi, o‘zbek tili grammatikasining asosiy qismiga aylandi. Yigirmanchi yillarning boshlarida yaratilgan o‘zbek tili darsliklari tarkibida o‘quv topshiriqlari mayjud emas edi. Keyinchalik A.Borovkov boshchiligidagi 1950-yillarda yaratilgan darsliklarda o‘quv topshiriqlari kiritila boshlandi [3].

Metodist G’.Hamroev taddiqotlarida o‘quv topshiriqlari umumiyligi o‘rtalim tizimi doirasida o‘rganib chiqilgan. Bu borada uning o‘zbek tili o‘qitish metodikasida mashq va topshiriqlar vazifa jihatidan farqlanmaydi, buning natijasida talabalarda nutqiy ko‘nikmalar to‘laqonli rivojlanmayapti, degan fikriga qo‘shilish mumkin [3].

“Pedagogika ensiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgan va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin:

Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash.

Masalan, o‘qish, yozish A.G’ulomov ta’limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi [5].

Bu o‘rinda o‘zbek tili o‘qitish metodikasi bilan til sathlari o‘rtasidagi farqlarni solishtirish bo‘yicha berilgan topshiriq o‘zini oqlamasligi mumkin. Uning fan sifatidagi ahamiyati haqida fikr yuritish o‘rniga xususiyatlarini so‘rash ahamiyatsizroqdir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida, shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili o‘qitish metodikasi zamona talabalariga javob berishi uchun barcha diqqatni nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratish lozim. Bo‘lajak ona tili va adabiyot o‘qituvchilari o‘z talabalariga tinglab tushunish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini hosil qilishni o‘rgatishi lozim. Buning uchun har bir bo‘lajak o‘qituvchi matn ustida ishlashni bilishi, bir fikrni turli shakllarda bera olishni o‘rganishi, eng asosiyi, o‘quv topshiriqlarini farqlay olishi, ulardan mashg‘ulotlar davomida samarali foydalana olishi lozim. Oliy ta’lim tizimida o‘quv topshiriqlaridan foydalananishning mavjud holati, topshiriq turlari, savol va topshiriqlarning vazifaviy farqlanishlari, mashqlarning ona tili, davlat tili o‘qitish metodikalaridagi o‘rni, tuzilgan o‘quv topshiriqlarining tanlangan mavzu, shuningdek ta’lim maqsadiga mosligi, bo‘lajak mutaxassislarning topshiriq tuzish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishslash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). *Metodik qo‘llanma*, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi, MCHJ.T.: 2022. 121 bet

2. Beruniy. Tanlangan asarlar, N1 tom, 64- bet.

3. Borovkov A., G’ulomov A., Ma’rupov Z., Shermuhammedov T. O‘zbek tili grammatikasi. Yetti yillik va o‘rtalim maktablarning 5 – 6-sinflari uchun darslik. I qism. Fonetika va morfologiya. –T.: O‘zdavnashr. 1946. 227-b.

4. Djon Dyui. Общество и его проблемы. John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Общество и его проблемы. —Перевод с английского: И.И.Мюлберг, А.Б.Толстов, Е.Н.Косилова. — М.: 2002.

5. G’ulomov. A.G’. //O‘zbekiston sovet ensiklopediyasi.–T., 1981. – 394-b.

6. Hamroyev G’. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. Metodik qo‘llanma. – T.: Bayoz. 2018. 197 b.

7. Usman A., Avizov B. O‘zbek tili grammatikasi. Birinchi bo‘lim. Fonetika va morfologiya. To‘liqsiz o‘rtalim va o‘rtalim maktablar uchun darslik. –T.: O‘zdavnashr. 1939. –235 b.